

UZLUKSIZ TA'LIM BOSQICHLARIDA UZVIYLIK MASALASI
(“Adabiyot” fani o‘quv dasturi misolida)

*Yuldasheva Saodat Azizovna,
O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti dotsenti
saodat.yuldasheva@mail.ru*

Annotatsiya. Global rivojlanish davrida ta'lim tizimining yangi bosqichga ko'tarilishi, ta'lim mazmunining yangilanishi, milliy modelning ishlab chiqilishi ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsnı shakllantirish va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zamin hozirlaydi. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'limning amaldagi o'quv dasturi bilan Milliy o'quv dasturi loyihasi qiyosan o'rganilgan, darsliklarning mazmun-mundarijasiga kiritilgan mavzularning uzviyligi ko'rib chiqilgan. O'quvchilarda shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar, ta'lim berish jarayonida o'qituvchining oldiga qo'yilgan vazifalar masalasiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar. Uzluksiz ta'lim, ta'limning mazmuni, milliy model, tamoyil, izchillik, “Adabiyot” fani o‘quv dasturi, bilim, ko'nikma va malaka.

SÜREKSIZ EĞİTİM DÜZEYLERİNDE İLİŞKİLİK SORUNU
(“Edebiyat” dersi müfredati örneğinde)

*Yuldasheva Saodat Azizovna
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü doçenti*

Özet. Küresel kalkınma döneminde, eğitim sisteminin yeni bir seviyeye yükselmesi, eğitim içeriğinin yenilenmesi, ulusal modelin geliştirilmesi, yaratıcı, sosyal olarak aktif, manevi olarak zengin bir kişinin oluşumu ve yüksek nitelikli rekabetçi personelin eğitimi için zemin hazırlar. Bu makalede, genel ortaöğretimde mevcut müfredati ile Ulusal Müfredat taslağı karşılaştırmalı olarak incelenmiş ve ders kitaplarının içeriğine dahil edilen konular arasındaki bağlantı ele alınmıştır. Öğrencilerde oluşturulan bilgi, beceri ve yetenekler, eğitim sürecinde öğretmenin karşılaştığı görevlere odaklanılmıştır.

Anahtar kelimeler. Sürekli eğitim, eğitimin içeriği, ulusal model, ilke, tutarlılık, “Edebiyat” müfredati, bilgi, beceri ve yetenek.

**НА ЭТАПАХ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
ВОПРОС ВЗАИМОСВЯЗАННОСТИ**
(на примере учебной программы по предмету “Литература”)

*Юлдошева Саодат Азизовна
доцент Узбекско-Финского педагогического института*

Аннотация. В эпоху глобального развития подъем системы образования на новый уровень, обновление содержания образования, разработка национальной модели подготовливают почву для формирования творческой, социально активной, духовно богатой личности и подготовки высококвалифицированных конкурентоспособных кадров. В данной статье проведено сравнительное изучение действующей учебной программы общего среднего образования с проектом Национальной учебной программы, рассмотрена преемственность тем, включенных в содержание учебников. Обращается внимание на вопросы знаний, умений и навыков, формируемых у учащихся, задач, поставленных перед учителем в процессе обучения.

Ключевые слова. Непрерывное образование, содержание образования, национальная модель, принцип, преемственность, учебная программа по предмету «Литература», знания, умения и навыки.

AT THE STAGES OF CONTINUOUS EDUCATION CONTINUITY PROBLEM (on the example of the curriculum of the subject "Literature")

*Yuldasheva Saodat Azizovna
associate professor at the Uzbekistan-Finland pedagogical institute*

Abstract. In the era of global development, the rise of the education system to a new level, the renewal of the content of education, and the development of the national model lay the foundation for the formation of a creative, socially active, spiritually rich personality and the training of highly qualified competitive personnel. This article compares the current curriculum of general secondary education with the draft National Curriculum and examines the continuity of topics included in the content of textbooks. Attention is paid to the issues of knowledge, skills, and abilities formed in students, and the tasks set for the teacher in the educational process.

Keywords. Continuous education, content of education, national model, principle, consistency, curriculum of the subject "Literature," knowledge, skills and abilities.

Uzluksiz ta'lism deganda mantiqiy izchillik asosida o'zaro bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlantirilib boruvchi, bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat bo'lgan yaxlit ta'lism tizimi tushuniladi. "Ta'lism to'g'risida" [1] gi Qonunning "Ta'lism sohasidagi asosiy prinsiplar"ga oid 4-moddasida bir qator tamoyillar bilan birga "ta'larning uzluksizligi va izchilligi" tamoyili alohida qayd etilgan.

Uzluksiz ta'lism milliy modelning asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy, texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha sanaladi. Bu ta'lism tizimi ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Ta'lism to'g'risidagi qonunning 7-moddasida qayd etilgan ta'larning 7 turi: maktabgacha ta'lism va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lism, professional ta'lism, oliv ta'lism, oliv ta'lindan keyingi ta'lism, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta'lism bosqichlarida uzluksiz ta'lism faoliyat olib borishi davlat ta'lism standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lism dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi.

Uzluksiz ta'larning faoliyat ko'rsatish tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ta'larning ustuvorligi – uning rivojlanishi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- ta'lism faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflikning ta'minlanishi;
- ta'lism olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
- ta'lism va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilishi;
- ta'lism va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatiga asoslanilishi;
- ta'larning ijtimoiylashuvi – ta'lism oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;
- ta'larning milliy yo'naltirilganligi – ta'larning milliy tarix, xalq an'analari va urfodatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'lismni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmat qilish;
- ta'lism va tarbiyaning uzviy bogliqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi.

Global rivojlanish davrida ta'lismi tizimini yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarish, barqaror taraqqiyotga hissa qo'sha oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida ilg'or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablari o'rganilib, amaliy jarayonga tatbiq etilishi rejalashtirildi. Bu jarayonda ta'limning mazmuni va samaradorligini oshirish uchun o'quv dasturlari, o'qitish metodlari va ta'lismi sifatini baholash tizimi qayta ko'rib chiqilib, takomillashtirilish ishlari yo'lga qo'yildi. Umumiy o'rta ta'limning amaldagi o'quv dasturlari va darsliklarning mazmun-mundarijasi yuzasidan keng jamoatchilikning tanqidiy, tahliliy fikrlari olindi. Ushbu fikrlar asosida umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasi ishlab chiqildi va mutaxassislar, xalq ta'limi xodimlari diqqatiga muhokama uchun tavsiya etildi. Milliy o'quv dasturi ishlab chiqilishida qanday hart-sharoitlar yaratildi? Nimalar inobatga olindi?

Avvalo, 2020-yil 2-mart kuni 5953-sonli Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi [2] ning 159-bandida "Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish" masalasining qo'yilishi, 2020-yil 6-noyabrdagi "Mamlakatimiz ta'limtarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 6108-sonli Prezident Farmonining 2-bandidadasturni ishlab chiqishda nazarda tutiladigan masalalar va vazifalarning belgilanishi ahamiyatga molikdir. Mazkur vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasini ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruhlar tarkibi shakllantirildi, milliy va xorijiy ekspertlar, konsultantlar belgilandi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi va xalqaro ekspertlar tomonidan Milliy o'quv dasturining loyihasini ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda. Faoliyat jarayoniga Singapur, Koreya Respublikasi, AQSH, Gongkong, Finlyandiya va Yaponiya kabi davlatlar tajribalari va metodologiyasi inobatga olindi. UNICEF, USAID va boshqa xalqaro tashkilotlarning konsultantlari bilan tizimli ishlash yo'lga qo'yildi. Ta'limning mazmuniy negizi bo'lgan o'quv dasturini shakllantirishda bunday jiddiy yondashuv ahamiyatlidir. Xususan, ajdodlarimizdan meros bo'lgan milliy ta'lim-tarbiyaga uyg'un holda zamonaviy yondashuvni singdirish, o'zaro uzviy fanlarni birlashtirish, o'quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlashga qaratilgan sinflar kesimidagi malaka talablarini ishlab chiqish, o'quv dasturlaridagi o'zaro aloqadorlik va uzviylikni ta'minlash, o'quvchilarning savodxonligi, kompetensiyasi va shaxsiy sifatlarini baholash, kasblarga bo'lgan qiziqishini aniqlash kabi masalalar yaratilayotgan Milliy o'quv dasturida ifodalanishi maqsad qilib olindi. Amaldagi o'quv dasturi bilan Milliy o'quv dasturi loyihasini qiyosan ko'rib chiqadigan bo'lsak, quyidagilarni qayd etsak bo'ladi:

Amaldagi o'quv dasturi	Milliy o'quv dasturi
4 tarkibiy qismdan: tayanch reja, o'quv dasturi, malaka talablari va baholash tizimidan iborat	6 tarkibiy qismdan: umumta'lim fanlarining konsepsiyalari, tayanch va variativ rejalar, o'quv dasturi, umumta'lim fanlarini o'qitish metodologiyasi, malaka talablari va baholash tizimidan iborat.
chiziqli o'qitish, yodlatishga asoslanib, 80% nazariya va 20% amaliyotga yo'naltirilgan.	spiralsimon o'qitishga asoslanib, XXI asr ko'nikmalarini rivojlantiriladi, 50% nazariya va 50% amaliyotga yo'naltiriladi
	Umumta'lim fanlari soni va o'quv yuklamalari optimallashtiriladi, 1-6- sinflarda tabiiy fanlar (Sceince) joriy etiladi
bilimlar hajmi baholanadi	mantiqiy, tanqidiy fikrlash, amaliy ko'nikma va kompetentiylar baholanadi

Umumta'lim fanlarning konsepsiyasida fanlarni o'qitishdagi muammolar (motivatsiya va mazmun-mundarija bilan bog'liq, metodik xarakterdagi hamda kadralar bilan bog'liq muammolar), konsepsiyanı amalga oshirishning yo'nalishlari va kutilayotgan natijalarning keltirilishi orqali fan ta'limini rivojlantirishda amalga oshiriladigan vazifalarni aniq belgilab olishga imkon beradi. Jumladan, yaqin kelajakda fanni o'qitish o'quv xonalari moddiy-texnik bazasini xalqaro

standartlarga uvofig ta'minlash, raqamli texnologiyalar va ta'lif texnologiyalarining integratsiyasiga erishish, fanga doir elektron kitoblarni mobil uskunalariga yuklab olish maqsadida QR-kod tizimini yaratish kabi amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar ham keltirilgan. Ona tili va adabiyot fanlarining Milliy o'quv dasturlarida bitiruvchilariga qo'yiladigan talablarda shakllantirilishi lozim bo'lgan fanga oid kompetensiyalar yanada aniqlashtirilib berilgan.

Milliy o'quv dasturda "Adabiyot" fanini o'qitishning maqsadi aniq qilib belgilab qo'yilgan: "Adabiyot o'qitishning maqsadi badiiy asarlar yordamida sog'lom e'tiqodli, mustaqil fikrli, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, o'z xatti-harakatlariga xolis baho bera oladigan shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat" [3].

Bugungi adabiy ta'linda o'quvchilarni milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini mustaqil tushunish va tahlil qilishga o'rgatiladi hamda shu orqali o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, kitobxonlik madaniyatini va ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini, adabiyestetik didini shakllantirish; mustaqil fikrlash, obrazli tafakkur etish kabi bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish; olam va inson tabiatini, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga e'tibor qaratilmoqda. Ushbu bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilarda shakllantirish uchun o'qituvchi ta'lif berish jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak bo'ladi, ya'ni o'quvchilarda:

- ✓ badiiy so'zdan ta'sirlanish, uning jozibasini his etish, haqiqiy badiiy asarni tanish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- ✓ o'qilgan badiiy asarni tushunish, undan hayotiy xulosalar chiqarish, badiiy asar o'qishni hayotiy ehtiyoj hisoblash tuyg'ularini tarbiyalash;
- ✓ yozma va og'zaki savodxonlik, nutqida adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish hamda adabiyot o'quv fanining mazmunidan kelib chiqqan holda tayanch kompeten-siyalarni shakllantirish;
- ✓ uzuksiz ta'lif bosqichlarida badiiy asar mutolaasiga erkin yondashuv tamoyilini shakllantirish;
- ✓ ularda turli janrlardagi badiiy asarlarni o'qish, bitiklarning saviyasini ajrata bilish, qahramonlar tutumlariga aksiologik baho berish ko'nikmasini qaror toptirish kerak bo'ladi.

Umumiyo o'rta ta'lif so'ngida esa o'quvchilarda adabiyot faniga oid quyidagi adabiy kompetensiyalar shakllangan bo'lishi lozim:

AK1: asarning asosiy va ikkilamchi g'oyasini (g'oyalarini) aniqlaydi va munosabat bildiradi, bunda adabiyot va boshqa fanlardan olgan bilimlariga, shu jumladan, asar yaratilgan kontekst (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy) haqidagi bilimlariga hamda o'z hayotiy tajribasiga tayanadi.

AK2: asardagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va impitsit fikrlarni (tagma'nolarni) ilg'aydi, asardan xulosalar chiqaradi va bu xulosalarini asoslab beradi;

AK3: asarning syujetini tushunadi, syujet elementlarini ajratadi va asarning qurilishiga munosabat bildiradi;

AK4: muallif qo'llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini, shuningdek, lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlarni tahlil topadi hamda ularni asarda qo'llashdan ko'zlangan maqsadni, ularning o'quvchiga ta'sirini tushuntirib beradi;

AK5: asardagi obrazlarni tahlil qiladi, ularga munosabat bildiradi hamda munosabatini matn, boshqa manbalar va hayotdan olingan misollar yordamida asoslab beradi;

AK6: asarning turli talqinlarini (masalan, kino, teatr, tasviriy san'atdagi talqinlarini) solishtirib, o'xshash va farqli jihatlarini aytadi, munosabat bildiradi;

AK7: o'qilgan asarlar tahlili (shu jumladan, qiyosiy tahlili) asosida ijodiy va tahliliy matnlar yaratadi, bunda turli lingvistik va ekspresiv vositalardan o'rinni foydalanadi hamda mantiqiy izchillikka rioya qiladi.

Yangi avlod adabiyot darsliklarida talab etilgan ko'nikmalarni o'quvchilarda hosil qilib, rivojlantirish uchun hozirgi zamон о'quvchilarining qiziqishlariga mos yangi asarlar kiritilganligiga guvoh bo'lamiz, jumladan:

- 6-sinf dasturida Odil Yoqubov "Yaxshilik", Lengston Hyuz "Rahmat, sizga xonim", Hojiakbar Shayxov "Birinchi sinov", Rey Bredberi "Bir kunlik yoz", Jyul Vern "O'n besh yoshli kapitan", Artur Konan Doyl "Mallalar uyushmasi", Rahmat Fayziy "Hazrati inson", Xurshid Davron "Vatan devorlari", Oskar Uayld "Baxtli shahzoda", Azim Suyun "Yomg'ir yog'ib o'tdi", Omon Matjon "Osmon sog'inchi" va b. sh. kabi;

- 7-sinf dasturida Normurod Norqobilov "Oqbo'yin", Ernest Seton Tompson "Lobo", Ernest Heminguey "Chol va dengiz", Nabi Jaloliddin "Ota", Sergey Yesenin "Shahinam, o, mening Shahinam...", Rasul Hamzatov "Qushqanotli, hoy karvon...", Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar", O'lmas Umarbekov "Qiyomat qarz", Qamchibek Kenja "Baliq ovi", Anton Chexov "Xameleon" va b. sh. kabi;

- 10 sinf dasturida Homer "Illiada", "Odisseya", Migel de Servantes Saavedra "Don Kixot sarguzashtlari", Muqimiyy "Saylov", Aleksandr Pushkin "Yevgeniy Onegin", Erix Mariya Remark "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" va b. sh. kabilar.

Tamomila mazmunan yangilangan o'quv dasturi va darsliklardagi asarlarni o'quvchilarga o'rgatishda o'qituvchidan ham badiiy tahlil asoslarini puxta bilishi va amalda muvofiq metod va pedtexnologilardan foydalangan holda tatbiq etishi kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, xalq ta'lumi tizimida ilk bor joriy etilishi kutilayotgan umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ta'lum to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 23.09.2020-yildagi O'RQ -637сон.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagи "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" PF 5953-sonli Farmoni.
3. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasi. Adabiyot. 2021-y.
4. Азизовна, Ю.С. Развитие познавательных навыков учащихся в процессе языкового образования. *JournalNX*, 514-516.
5. Азизовна, Ю.С. Формирование чувства уважения у студентов. *Журнал NX*, 1026-1028.
6. Азизовна, Ю.С. (2023). Миллий дастур талаблари асосида узбек тилини о'қитишнинг самарадорлиги. *фан, талим ва амалийот интеграцияси*, 661-664. Получено с <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1256>.
7. Azizovna Y.S. Study of folktale in literature and its relation to the epic genre. Central European Management Journal 31 (No. 03 (2023)), 476-482
https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/7250/19705/65b7e8e0c2065_Yuldosh_eva%20S.Central%20European%20Management%20Journal.pdf
8. Azizovna Y.S. On the Development of Expressive Learning Skills. International Journal on Integrated Education (IJIE) 6 (No. 5 (2023)), 313-316
<https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/4444>